

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATGA EGA BO‘LISHLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tursunova Muslima Xusanjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda o‘qituvchi zimmasiga yuklatilayotgan vazifalarni pedagoglarga xos mahorat bilan bajarilishi jamiyat kelajagini ta’minlovchi muhim omil ekanligi to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, madaniyat, qobiliyat, kasbiy bilimdonlik, insonparvar yo‘nalganligi, ijtimoiy moslashuv, intellektual ta’sir, kommunikativ faoliyat, tarbiyaviy ish.

Pedagog juda yuksak darajadagi madaniyatga ega bo‘lgan shaxs. U juda ko‘p narsani bilishi kerak. Hozirgi zamonda o‘zi o‘qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo‘lishi kerak. Tarbiyalanuvchilarni har kuni mashg‘ulotlarni o‘rgatib borish uchun o‘zi muntazam o‘qib, o‘rganib, o‘z bilimini to‘ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak. Demak, pedagog, pedagogik mahoratining asosiysi o‘z ustida mustaqil o‘qishidir. O‘zbekiston mustaqillika erishgandan keyin ta’lim-tarbiya sohasida, milliy axloq–odobni qayta tiklash borasida, milliy urf–odatlar ana’nalarni joy-joyiga qo‘yish milliy qadriyatlarini yanada rivojlantirish xususida buyuk burilishlar bo‘lgani barchaga ayon. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilim va pokiza odob-ahloqli qalb egasi ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim. Pedagogik mahorat – tug‘ma yoki nasldan–naslga o‘tuvchi xususiyat emas, balki izlanish, ijodiy mehnat mahsuli. Bu ko‘p qirrali pedagogic faoliyat zamirida ijodiy mehnat yotadi.

Bugungi kunda amaldagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda ta’lim sohasida pedagogic mahorat masalalarini amalga oshirishning maqsadi, vazifalari, yo‘nalishlarini belgilab berdi. Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo, o‘qituvchiga, uning bilimi va kasb mahoratining shakllanganlik darajasiga bog‘liq. Pedagogik mahorat asoslari fanining paydo bolishi buyuk pedagog A.S.Makarenko (1889-1939) nomi bilan bevosita bog‘liq. U bolalar kalonnasidagi faoliyatida, ya’ni faqat tarbiyasini emas, ma’naviy qiyofasini ham yo‘qotgan bolalar bilan ishlab, ularning benihoyat hurmati va ishonchiga sazavor bo‘ldi. Shaxsiy tarbiyaviy usuli bilan butun olamga mashhur bo‘lganligining o‘zi ham A.S.Makarenkoning yuksak pedagogik mahorat cho‘qqisiga erishganligining yaqqol dalilidir. YUNESKO qarori bilan uning 100 yilligiga A.S.Makarenko bo‘lajak pedagog talabalik davridayoq pedagogik mahorat sirlarini o‘rganishi zarurligini ta’kidlab, shunday deydi: “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishini bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin”. Buyuk pedagogning bu fikriga Ukraina pedagogika instituti olimlari katta mas’uliyat bilan qarashdi. Ular bir necha yillar davomida Makarenko pedagogik mahorati maktabini, mavjud bo‘lgan ilg‘or narzariya va amaliyotni atroflicha tahlil qilishdi. Natijada 1979-yili “Pedagogik mahorat asoslari” fani yaratildi va u barcha pedagogik oliy o‘quv yurtlarida o‘qitila boshlandi. Shuning uchun ham fan dasturiga pedagogik mahorat mohiyati, o‘quvchiga ta’sir etish vositalari va usullari kabi pedagogik mahoratning odatdagi masalalaridan tashqari, teatr pedagogikasi va notiqlik san’ati haqidagi ma’lumotlar ham kiritilgan. Bu fanni o‘rganish pedagogika, psixologiya, metodika va boshqa pedagogik fanlardan egallagan bilimlarga asoslangan. O‘qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

- madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko‘rsatkichi
- o‘z faniga doir bilimlarni mukammal sohibi

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

- o‘quv-tarbiya ishlar metodikasini mukammal bilishi
- pedagogik qobiliyatga ega bo‘lishi va boshqalar...

Yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi bolani tushuna olishi va unga nisbatan insonparvar munosabatda bo‘lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to‘g‘ri baxolashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo‘lgan ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg‘orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o‘quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g‘oyalarni hayot bilan bog‘lay olishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, XXI asr bolasini o‘qitish va tarbiyalash, ularni barkamol inson va yetuk malaka mutaxassis kadrlar darajasiga yetkazish vazifasini faqat yuksak tajribaga va mahoratga ega bo‘lgan XXI asr o‘qituvchisiga uddalay oladi. Bu esa pedagogdan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod- “O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent-1997
2. Y.M.Asadov “Maktab amaliy psixologiyasi” Toshkent-1999
3. B.X. Xodjayev “ Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. Toshkent-2017
4. A.Xoliqov “Pedagogik mahorat” Toshkent “Iqtisodiy moliya”-2011
5. arxiv.uz saytidan